

## Akutagava Ryunoskening “Fidoiy” Asarida Muallif Shaxsiyatining Aks Etishi

Sa’dullayeva Asal Hamid qizi

Abu Rayhon Beruniy nomidagi, Urganch davlat universiteti, 2- bosqich talabasi

**Annotatsiya:** Ushbu maqola orqali ijodkor dunyoqarashi va ruhiy holatining asarlarida aks ettirilishi yuzasidan qarashlar mashhur yapon yozuvchisi Akutagava Ryunoskening “Fidoiy” asari tahlili orqali muallif shaxsiyatining asar bosh qahramoni Bakin obrazi bilan taqqoslab o‘rganilishi davomida ko‘rib chiqiladi.

**Kalit so‘zlar:** ijodkor ruhiyati, ijtimoiy holat, dunyoqarash, syujet.

**KIRISH.** Badiiy adabiyotdagi har qanday asar u xoh nasrda xoh nazmda yaratilishidan qat’iy nazar o‘zida, albatta, ijodkor ruhiy olamining tasvirini olib yuradi. Zero badiiy asar asli ichki olam va hissiyotlar mahsulidir. Shu sababdan u yoki bu ijodkor qalamiga mansub asarni o‘qish barobarida uning shaxsiyati olamiga beixtiyor kirib boramiz. Quyida tahlilga tortiladigan asar, taniqli yapon yozuvchisi Akutagava Ryunoske qalamiga mansub “Fidoiy” hikoyasida ham ayni shu holat o‘zining eng yuqori cho‘qqisiga chiqqan desak, mubolag‘a bo‘lmaydi. Ushbu asar tom ma’noda ijodkor tarjimayi holidan bir lavha vazifasini o‘tay olgan. Hikoya Saydi Umirov tomonidan rus tili orqali tarjima qilingan.

**TADQIQOT OBYEKTI VA QO‘LLANILGAN METODLAR.** Tadqiqotning obyektini sifatida mahoratli yapon yozuvchisi Akutagava Ryunoskening “Fidoiy” hikoyasi olingan. Tadqiqotda kuzatish, induksiya, tahlil kabi tadqiqot usullaridan foydalaniladi.

**OLINGAN NATIJALAR VA ULARNING TAHLILI.** Hikoyada bosh qahramon obrazini ochib berish orqali jamiyatning ijodkor ruhiyatiga ta’siri hamda o‘sha davr ijtimoiy holati yoritilgan. Asar boshida ommaviy xammom tasviri, ko‘rinishidan 60 lardan oshgan cholning xatti-harakatlari va uning umr shomiga yetib kelganini anglagan onidagi ruhiy tushkunlik holati mahorat bilan ifoda etiladi. Shu o‘rinda esa “...sertashvish hayotning sertashvish azob-uqubatlaridan qutulsa, o‘lim soyasida tush ko‘rmay uxlasa, qandoq xursand bo‘lardi, axir, toza odamlar tush ko‘rmay uxlaydi, deyishadi-ku. U yashashdan charchagandi. Ijod azoblaridan esa ko‘proq charchadi, bu azobga bir necha yilki, giriftor edi...”<sup>1</sup> jumlasini keltiriladi va aynan mana shu jumla muallifning ruhiyatini ma’lum darajada anglashga yordam beradi. Akutagava Ryunoske tarjimayi holini o‘rganadigan bo‘lsak, o‘tgan asrning 20-yillaridagi Yaponiya nashriyotlarining ijodkorlarga bo‘lgan munosabati ko‘ngildagidek emasdi. Ya’ni oldinlari nashriyotlar shoir va yozuvchilarga murojaat qilib, sara asarlarini bosmadan chiqarish taraddudida bo‘lgan bo‘lishsa, bu davrga kelib noshirlar yozilajak asarning mavzusi va mazmuni yuzasidan o‘zlari qaror qabul qilar va buyurtma asosida asarlar yozdirishga harakat qilishar edi. Bunday vaziyat esa, tabiiyki, ijodkorlarning asar yaratishga bo‘lgan ishtiyoqini so‘ndirib, ma’naviy zarar yetkazadi. Ustiga-ustak ayrim kitobxonlarning o‘rinsiz tanqidlari dard ustiga chipqon bo‘lishi ham ushbu hikoyada o‘z ifodasini topgan. Buni xammomdagi “g‘ilay” deya atalgan bir odamning asar qahramoni bo‘lmish Bakin Sakiti Takidzavaga nisbatan qilgan bo‘hton to‘la tanqidlari orqali ko‘rishimiz mumkin. Xususan, u ijodkorni ko‘chirmachilikda ayblaydi va bu da’vosini “...Uning yozganlari boshqa asarlarning nusxasi, xolos. “Sakkiz olapar” nari-beri to‘qib bichilgan “Daryo qo‘ltig‘i” dan boshqa narsa emas.

<sup>1</sup> <https://mutolaa.com/book/fidoiy>

Buni hisobga olmaganda, “Sakkiz olapar”da pichoqqa ilingudek narsa topsa bo‘ladi, albatta. Lekin xitoylikning asari ancha oldin yozilgan. Bakinning xizmati faqat shundaki, u asl nusxani o‘qishga fursat topgan...”<sup>2</sup> jumalari orqali izohlaydi. Bundan tashqari yozuvchini faqatgina tarixiy mavzudagi asarlar yozishda, oddiy ifoda etilishi mumkin bo‘lgan asarlarga ham tarix voqelarini qalashtirib tashlashda ayblaydi. Endi shu o‘rinda Akutagava asarlariga nazar soladigan bo‘lsak, uning ham aksariyat asarlarida (“Tansiq taom”, “Do‘zax azoblari” hikoyalari shular jumlasidan) tarixga murojaat yetakchi o‘rinda turadi va unga ham xuddi shunday tanqid toshlari otilgan bo‘lsa, ajab emas.

Akutagava Ryunoske ushbu asarida ijodkor shaxsiyatini turli yo‘llar orqali to‘liq ochib berishga muvaffaq bo‘ladi. Jumladan, uning xammomda uchratib qolgan muxlisi bilan suhbat davomida “...U anchadan beri muxlislarining maqtov va takalluflariga izn berardi. Lekin bu xayrixohlik, maqtov-xushomadlar haqida sog‘lom va xolis fikr yuritishga xalaqit qilmasdi...”<sup>3</sup> jumalari orqali hikoya o‘quvchisida qahramon haqida ijobiy fikr uyg‘otgan va balkim ijodkor o‘laroq o‘z ichki olamini namoyon qilib o‘tgan.

Bilamizki, ijodkor ahli o‘z dunyoqarashidan kelib chiqib, nasr va nazmga turlicha munosabat bildiradi. Yuqorida tasvir etilgan suhbat bayonini o‘qish davomida biz hikoya qahramoni bo‘lmish ijodkorning (yoki asar muallifi Akutagava Ryunoskening) bu masala yuzasidan shaxsiy fikriga ushbu jumalar orqali oydinlik kiritamiz: “Shunchaki anchadan buyon bunaqa san’atni jini suymasdi. Nimaga deysizmi? Shuning uchunki, tanka ham, xokku ham, tor bag‘riga uni, Bakinni sig‘dirishga ojiz edi. Har qanday uchlik yoxud beshlik, lirik bo‘ladimi, peyzajmi, qanchalik ustalik bilan tizilmasin, nasriy asarlarining bir necha satriga teng kelolmasdi. Bunday san’atni ikkinchi nav san’at deb hisoblardi u”.<sup>4</sup>

Yuqorida 20-asrdagi ijodkorlarning ijtimoiy hayotidagi muammo haqida bayon qilgan edik va hikoyadagi Itzumi Itibey va Bakin suhbatini orqali aynan shu mavzu yoritib o‘tilgan. Ya’ni Itzumi Itibey o‘sha davr noshirlarining tipik vakili sifatida tasvir etilgan. Ushbu muammoni olib chiqish jarayonida Akutagava ijodkor ruhiyatining yangi qirralarini ochishga ham muvaffaq bo‘ladi, ya’ni noshir harchand harakat qilmasin, Bakin o‘z ixtiyoridan tashqari, hissiyotlaridan tashqari bir jumla ham tuza olmasligini aytib, o‘z e’tiqodida qat’iy turadi va bu vaziyat bizga Akutagava hayotida ro‘y bergan bir mudhish holatni eslatadi: shu davrning mohir nosiri va dramaturgi bo‘lmish Takeo Arisima ushbu boshboshdoqliklarga chiday olmay, o‘z joniga qasd qilgan. Balki Akutagava yuqoridagi ijodkor qat’iyati tasviri orqali o‘zini bu ko‘ngilsiz holatdan asrashga, o‘zida kurashish uchun kuch topishga uringandir.

Har qanday qiyin vaziyatda insonga dalda beruvchi, hayotning mashaqqatlarini yengib o‘tishda unga turtki bo‘luvchi vosita bu oiladir. Asar qahramoni ham shu ma’noda oilasiga qattiq suyanib qolganini asarning “...Uyda yaqinlaridan hech kim yo‘q edi. Bakin birdan umidsizlikka o‘xshash bir holatga tushdi...”<sup>5</sup> o‘rni orqali tushunish qiyin emas. Ammo ayolining beparvo va sovuq munosabati, uning ijodiga bepisandlik bilan qarashi ijodkorga nihoyatda og‘riq beradi. Qiyin vaziyatda, bir talay hayot zarbalari qarshisida oila inson uchun haqiqiy qo‘rg‘ondir, ammo hikoya muallifi ham ana shu suyanchdan to‘qqiz oyligida onasi vafotidan so‘ng yetim qolganligi va o‘zga oilada asrandi sifatida yashagani tufayli ma’lum darajada mosuvo edi. Ustiga-ustak Akutagava onasining ruhiy kasal bo‘lganligidan xabar topadi va bu dard unga meros bo‘lib o‘tishidan xavotir oladi.

Taassuflar bo‘lsinki, ijodkor qo‘rqan o‘sha narsa aynan uning hayotiga nuqta qo‘ydi. Ijtimoiy bosim va ruhiyatidagi buzilishlar natijasida Akutagava ko‘p miqdordagi dori qabul qilib, 35 yoshida bu hayotdan ko‘z yumdi.

<sup>2</sup> <https://mutolaa.com/book/fidoyi>

<sup>3</sup> <https://mutolaa.com/book/fidoyi>

<sup>4</sup> <https://mutolaa.com/book/fidoyi>

<sup>5</sup> <https://mutolaa.com/book/fidoyi>

Endi shu o'rinda savol tug'iladi, muallif nega asar bosh qahramonini aynan 60 yoshlarga yaqinlashib, qartayib qolgan ijodkor sifatida tasvirladi? Bunga sabab qilib uning yashashga bo'lgan ishtiyoqini, umrining navqiron yoshidagi hayot qiyinchiliklarini yengib o'tib, qarilik davriga yetishga umid bog'laganini keltirish o'rindir. Ammo hayot bu borada yozuvchiga shafqat qilmadi.

**XULOSA.** Yuqoridagi fikrlardan xulosa qilib aytadigan bo'lsak, har bir badiiy asar o'z muallifi hayotining yoxud xayolotining ma'lum jabhalari aksi o'laroq qog'ozga to'kiladi. Akutagava Ryunoske ham o'zing "Fidoi" asari va undagi bosh qahramon ijodkor Bakin hayoti orqali o'z psixik holati, iztiroblari, kechinmalarini ifodalab berishga harakat qilgan va buning uddasidan chiqqan. Ammo shaxsiy hayoti yakunini asarda xayol qilgani kabi davom ettirib, jamiyat tazyiqlariga nisbatan bardosh va qat'iyat bilan kurasha olmadi va o'z joniga qasd qildi. O'limidan ilgari yozuvchi quyidagi so'zlarni bot-bot takrorlagan ekan: "Tabiat menga juda jozibali tuyulyapti, chunki men dunyoga so'nggi marta qarayapman".<sup>6</sup>

Akutagava Ryunoske asarlari o'zining badiiyati va ifoda tizimi bilan o'quvchi omma ongida iliq taassurotlar uyg'otadi, unda hayot uchun kurash, dunyoni ichki bir sezgi bilan anglash g'oyalari yetakchi o'rinda turadi. Shu sababdan adib asarlari bilan yaqindan tanishishni adabiyot ixlosmandlariga tavsiya qilaman.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. <https://mutolaa.com/book/fidoi>
2. [https://uz.m.wikipedia.org/wiki/Ry%C5%ABnosuke\\_Akutagawa](https://uz.m.wikipedia.org/wiki/Ry%C5%ABnosuke_Akutagawa)
3. Ruhiyat alifbosi. B.Karim.-Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2018.
4. Makoto.U. Modern Japanese Writers and the Nature of Literature, 1976. Stanford, California,: Stanford University Press.
5. Shuichi.K. A History of Japanese literature, 1983. The Macmillan Press.

---

<sup>6</sup> [https://uz.m.wikipedia.org/wiki/Ry%C5%ABnosuke\\_Akutagawa](https://uz.m.wikipedia.org/wiki/Ry%C5%ABnosuke_Akutagawa)